



HUDUDLARNING INVESTITSIYA JOZIBADORLIGINI OSHIRISH ISTIQBOLLARI

**Samandarova Dilnoza
Shavkatjon qizi**

*Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti,
Magistratura va kechki ta'lim fakulteti talabasi*

Hududlarning investitsiya jozibadorligini oshirish bugungi kunda iqtisodiyotni barqaror rivojlantirishning muhim omillaridan biri hisoblanadi. Jahon iqtisodiyotida globallashtirish jarayonlarining kuchayishi natijasida hududlar o'rtasida investitsiyalarni jalb qilish bo'yicha raqobat tobora ortib bormoqda¹. Shu sababli har bir davlat hududlarning iqtisodiy salohiyatini oshirish, qulay investitsion muhit yaratish hamda xorijiy investorlarni keng jalb etishga alohida e'tibor qaratmoqda.

O'zbekiston Respublikasida ham so'nggi yillarda investitsiya faoliyatini rivojlantirish, hududiy iqtisodiy nomutanosibliklarni kamaytirish va tadbirkorlik subyektlarini qo'llab-quvvatlash borasida keng ko'lami islohotlar amalga oshirilmoqda. Xususan, erkin iqtisodiy zonalar tashkil etilishi, soliq imtiyozlarining kengaytirilishi hamda infratuzilma loyihalarining amalga oshirilishi hududlarning investitsiya jozibadorligini oshirishda muhim ahamiyat kasb etmoqda².

Hududlarning investitsiya jozibadorligi nafaqat tabiiy resurslar yoki geografik joylashuv bilan, balki zamonaviy infratuzilma, malakali ishchi kuchi, institutsional muhit va raqamli texnologiyalar rivoji bilan ham chambarchas bog'liqdir. Shu bois investitsiya muhitini takomillashtirish, investorlar uchun qulay sharoit yaratish hamda hududlarning raqobatbardoshligini oshirish bugungi kunning dolzarb masalalaridan biri hisoblanadi³.

Bugungi kunda O'zbekiston iqtisodiyotida hududiy investitsiya siyosatini rivojlantirish davlat iqtisodiy strategiyasining ustuvor yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. So'nggi yillarda mamlakatda investitsiya muhitini yaxshilash, xorijiy kapitalni jalb etish va hududlar iqtisodiy salohiyatini oshirish bo'yicha keng ko'lami islohotlar amalga oshirilmoqda. Natijada asosiy kapitalga investitsiyalar hajmi yildan-yilga ortib bormoqda⁴.

¹ World Bank. Investment Climate Overview // World Bank rasmiy sayti. –


URL: <https://www.worldbank.org/en/topic/investment-climate>

² O'zbekiston Respublikasi Investitsiyalar, sanoat va savdo vazirligi rasmiy sayti. – URL: <https://gov.uz/oz/mivs>

³ UNCTAD. World Investment Report // United Nations Conference on Trade and Development. –

URL: <https://unctad.org/topic/investment/world-investment-report>

⁴ O'zbekiston Respublikasi Statistika agentligi. "Asosiy kapitalga investitsiyalar". – URL: <https://stat.uz/uz/rasmiy-statistika/investments>



1-rasm. O‘zbekistonda asosiy kapitalga investitsiyalar hajmi dinamikasi⁵

Rasm ma’lumotlaridan ko‘rinib turibdiki, 2020–2024-yillar davomida asosiy kapitalga investitsiyalar hajmi qariyb 2,3 barobarga oshgan. Ayniqsa, 2023–2024-yillarda investitsion faollikning sezilarli o‘shishi kuzatilgan bo‘lib, bu mamlakatda investorlar uchun yaratilayotgan qulay biznes muhiti, erkin iqtisodiy zonalar faoliyati va infratuzilma loyihalarining kengayishi bilan izohlanadi⁶.


Hududlar kesimida investitsiyalar notekis taqsimlanayotgani kuzatilmoqda. Investitsiyalarning asosiy qismi Toshkent shahri, Toshkent viloyati hamda sanoat salohiyati yuqori bo‘lgan hududlarga yo‘naltirilmoqda. Bu esa ayrim hududlarda investitsion faollikning pastligicha qolayotganini ko‘rsatadi.

Hududlar kesimida investitsiya oqimlarini tahlil qilish mamlakatdagi iqtisodiy faollik darajasi va hududiy rivojlanish tafovutlarini aniqlash imkonini beradi. Ayrim hududlarda sanoat, xizmat ko‘rsatish va infratuzilma tarmoqlarining rivojlanganligi investitsiyalar hajmining yuqori bo‘lishiga xizmat qilayotgan bo‘lsa, boshqa hududlarda investitsion faollik nisbatan sustligicha qolmoqda. Quyidagi rasmda 2025-yilning yanvar–sentabr oylarida hududlar bo‘yicha jalb qilingan investitsiyalar hajmi keltirilgan.

⁵ Muallif tomonidan ishlab chiqilgan.

⁶ “O‘zbekiston Respublikasida 2024-yilda asosiy kapitalga investitsiyalar”. –

URL: <https://invexi.org/uz/press/investments-in-fixed-capital-of-the-republic-of-uzbekistan-in-2024/>



2-rasm. 2025-yil yanvar–sentabr oylarida hududlar bo‘yicha investitsiyalar hajmi⁷

Yuqoridagi rasmdan ko‘rinadiki, investitsiyalarning katta qismi iqtisodiy infratuzilmasi rivojlangan hududlarda jamlangan. Xususan, Toshkent shahri umumiy investitsiyalarning 16,2 foizini tashkil etmoqda. Namangan viloyatida ham so‘nggi yillarda sanoat va xizmat ko‘rsatish sohasidagi loyihalar sonining ortishi investitsion faollikni kuchaytirgan.

Biroq ayrim hududlarda transport-logistika tizimining yetarlicha rivojlanmagani, sanoat infratuzilmasining sustligi hamda malakali kadrlar yetishmovchiligi investitsiyalar oqimining kamayishiga sabab bo‘lmoqda. Shu bois hududlar investitsiya jozibadorligini oshirishda infratuzilmaviy loyihalarni jadallashtirish muhim ahamiyat kasb etadi.

2024-yilda xorijiy investitsiyalar hajmining sezilarli oshgani ham investitsion muhit yaxshilanayotganidan dalolat beradi. Statistik ma‘lumotlarga ko‘ra, 2024-yilning yanvar–iyun oylarida to‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalar hajmi 66,8 trln so‘mni tashkil etgan. Bu esa xorijiy investorlarning O‘zbekiston hududlariga bo‘lgan ishonchi ortib borayotganini ko‘rsatadi.

Shuningdek, investitsiya jozibadorligini oshirishda raqamli iqtisodiyot, innovatsion texnologiyalar va davlat-xususiy sheriklik mexanizmlarini rivojlantirish muhim omillardan biri hisoblanadi. Zamonaviy logistika tizimlari, sanoat klasterlari hamda “yashil iqtisodiyot” tamoyillarini joriy etish hududlarning raqobatbardoshligini oshirishga xizmat qiladi.

Hududlarning investitsiya jozibadorligini baholashda asosiy ko‘rsatkichlardan biri xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalar soni hisoblanadi. Mazkur ko‘rsatkich hududlarda biznes muhiti, infratuzilma rivoji hamda investorlar uchun yaratilgan qulay sharoitlarning amaliy natijasini aks ettiradi. Shu sababli hududlar

⁷ Muallif tomonidan ishlab chiqilgan.

kesimida xorijiy investitsiya ishtirokidagi korxonalar sonini tahlil qilish investitsion faollik darajasini aniqlash imkonini beradi.

Tahlillar natijasida hududlarning investitsiya jozibadorligi iqtisodiy infratuzilma, biznes muhiti va davlat tomonidan yaratilayotgan imtiyozlarga bevosita bog‘liq ekanligi aniqlandi. Investitsiyalar asosan iqtisodiy salohiyati yuqori hududlarda jamlanayotgan bo‘lsa-da, barcha hududlarda investitsion muhitni yaxshilash orqali iqtisodiy faollikni muvozanatli rivojlantirish mumkin. Bu esa mamlakat iqtisodiy barqarorligini ta‘minlash va yangi ish o‘rinlari yaratishda muhim omil bo‘lib xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Mirziyoyev Sh.M. “O‘zbekiston — 2030” strategiyasi to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining PF-158-sonli Farmoni, 2023-yil 11-sentabr.
2. Vaxabov A.V., Xajibakiyev Sh.H., Muminov N.G. Xorijiy investitsiyalar. O‘quv qo‘llanma. – T.: “Moliya-iqtisod”, 2010. – 328 b.
3. Mustafakulov Sh.I. Investitsion muhit jozibadorligi. Monografiya. – T.: “Baktria press”, 2017. – 320 b.
4. Gulyamov S.S. Raqamli iqtisodiyot sharoitida hududlarning investitsiyaviy faolligini oshirish yo‘nalishlari // Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar. – 2022. – № 3. – B. 45-56.
5. Asadov Sh. Hududlarning investitsiyaviy jozibadorligini baholashning zamonaviy uslubiyotlari // Moliya va bank ishi. – 2023. – № 2. – B. 18-24.
6. UNCTAD. World Investment Report 2024: Investing in Sustainable Energy for All. United Nations Conference on Trade and Development. – New York: UN, 2024.
7. World Bank. *Uzbekistan Economic Monitor: Accelerating Regional Growth*. World Bank Group, 2025.
8. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi rasmiy ma‘lumotlari va statistik to‘plamlari (www.stat.uz).